

**Toshkent kimyo-texnologiya institutida 2024/2025 o'quv yili uchun ikkinchi va undan keying oliy ta'limga sirtqi ta'lim shakli bo'yicha o'qishga qabul qilish parametrlarining ta'lim yo'nalishlari va o'qitish tillari bo'yicha TAQSIMLANISHI**

№	Shifr	Ta'lim yo'nalishlari	To'lov-kontrakt asosida		
			Jami	shu jumladan:	
				o'zbek	rus
		<b>OTM bo'yicha jami:</b>	<b>175</b>	<b>175</b>	
		<i>shu jumladan, ta'lim yo'nalishlari bo'yicha</i>			
1	60411200	Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	25	25	
2	60412500	Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	25	25	
3	60710100	Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo'yicha)	25	25	
4	60711300	Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (tarmoqlar bo'yicha)	25	25	
5	60720100	Oziq-ovqat texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha)	25	25	
6	60720700	Texnologik mashinalar va jihozlar (tarmoqlar bo'yicha)	25	25	
7	60721100	Neft va neft-gazni qayta ishlash texnologiyasi	25	25	

**Toshkent kimyo-texnologiya institutiga ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga qabul qilish**

**TARTIBI**

1. Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga o'qishga kirish uchun abituriyentlar 10-iyuldan 10-avgustga qadar (shu kuni ham) O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan maxsus elektron <https://my.edu.uz/> tizim orqali ro'yxatdan o'tadi.

2. Abituriyentlar ro'yxatdan o'tishda maxsus elektron tizimga o'zining shaxsiy ma'lumotlarini kiritadi va quyidagi hujjatlarni yuklaydi:

- oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatning nusxasi (yoki diplomdan ko'chirma - O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarini davlat granti asosida o'qib tugatganlar uchun);

- oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatning ilova nusxasi;

Bunda, xorijiy davlatlar ta'lim muassasalarining 1992-yil 1-yanvardan keyin berilgan diplomlari belgilangan tartibda nostrifikatsiyadan o'tkazilgan bo'lishi lozim.

3. Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga qabul qilish umumiy maksimal 100 ballgacha baholanadigan test sinovi shaklida, bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga mos test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasiga muvofiq (Matematika, fizika, kimyo, biologiya, ingliz tili va h.k) joriy yilning 15-avgustidan 25-avgust kuniga qadar OTMda o'tkaziladi. (Test sinovi o'tkaziladigan aniq sana <https://tkti.uz/> saytida hamda <https://t.me/tktiuz> telegram kanalida e'lon qilinadi.)

5. Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga qabul abituriyentlar orasidan test natijalari bo'yicha ballar ketma-ketligiga qat'iy rioya qilingan holda tasdiqlangan ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim bo'yicha qabul parametrlar doirasida amalga oshiriladi.

4. Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga qabul qilish natijalari joriy yilning 30-avgustiga qadar e'lon qilinadi.

5. Ikkinchi va undan keyingi ta'limda o'qish uchun talabalikka tavsiya etilgan shaxslar oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatning asl nusxasini hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatning ilovasini OTMga taqdim etadi.

6. Ikkinchi va undan keyingi ta'limda o'qish uchun talabalikka tavsiya etilgan shaxslar bilan OTM o'rtasida shartnoma rasmiylashtiriladi.

7. Talabalarni o'qishga qabul qilish shartnomada belgilangan to'lov amalga oshirilgandan so'ng, oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

8. Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limda o'qish o'quv rejalaridagi fanlar farqidan qat'iy nazar, 2-kursdan boshlanadi.